Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Akusherlik va ginekologiya, reproduktologiya kafedrasining «Yoshlar bilan ishlash» borasida ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha o'tkazilgan
SPORT TADBIR BAYONNOMASI

23.11.25 yil **Toshkent sh.**

Qatnashdilar Kaf. mudiri professor F.I.Shukurov, professorlar t.f.d. G.S. Babadjanova, t.f.d. D.D. Saidjalilova, t.f.d. L.M. Abdullayeva, dosentlar t.f.d. G.N. Bekbauliyeva, t.f.d. Z.A. Muminova, t.f.d. A.V. An, t.f.n. U.M. Yusupova, katta o'qituvchilar PhD D.B. Mirzayeva, PhD M.K. Uzoqova, N.S. Razzakova, D.F. Gaybullayeva, assistentlar PhD Sobirov F.N., PhD M.D. Abdurazzoqova, PhD D.V. Gulommaxmudova, PhD D.M. Davletova, PhD K.A. Sattarova, PhD X.Z. Ahmedjanova, PhD Madolimova N.X., N.M. Gaipova, Sh.A. Anvarova, A.J. Jurayeva, M.A. Yuldasheva, G.B. Nasriddinova, Sh.I. Ismoilova, N.Z. Yuldasheva, G.F. Rajabova

Kun tartibi:

1.**„Sport—sog'lom xalq, sog'lom avlod tayanch ustuni!''**

Har bir ota-
ona, har bir millatning niyati – jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdir. B unga esa jismoniy tarbiya va sportsiz erishib bo'lmaydi. Sport sog'lom xalq, sog'lom avlo dning tayanch ustunidir.
Shu bois davlatimiz tomonidan bu sohaga katta e'tibor qaratilmoqda. So'nggi to'rt yilda budjetdan sportga ajratilayotgan mablag' 1,5 trillion so'mdan 3 trillion so'mga oshdi. M urabbiylarning o'rtacha maoshi 2 barobar ko'paydi. 101 ta yirik sport inshootlari qurildi , 67 tasi rekonstruksiya qilindi. Sportchilarimizning Parij Olimpiadasida erishgan yutuql ari bu e'tiborning yorqin natijalari bo'ldi.
Endi 2028 yilda Los-
Anjelesda bo'ladigan Olimpiya o'yinlarida kuchli o'ntalikka kirish maqsad qilingan. Bu ning uchun tayyorgarlikni kuchaytirish, sport federatsiyalarini rivojlantirish zarur.
Yig'ilishda bu masalalar 26 ta sport federatsiyasi va hududlar kesimida tahlil qilindi.
Masalan, so'nggi Olimpiya o'yinlarida 48 ta dastur bo'lgan yengil atletika bo'yicha 5 ta, 49 ta suv sporti dasturidan 4 ta litsenziya olingan, xolos. Qoraqalpog'iston, Jizzax, Qashq adaryo, Navoiy, Namangan va sirdaryolik sportchilar past natija ko'rsatgan.
Shu bois iqtidorli yoshlarni topish, olimpiya sport turlariga tayyorlash, ularni va murabb iylarni rag'batlantirish bo'yicha yangi tizim yo'lga qo'yilishi belgilandi. Davlatimiz rahb ari bu boradagi qator tashabbuslarni ilgari surdi.
Avvalo, olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish, seleksiya tizimini yaxshilash maqsadida Olimpiya qo'mitasining hududiy bo'limlari tashkil etiladi. Milliy Olimpiya qo 'mitasi raisi Prezident bo'lganidek, hududiy bo'limlarga viloyat hokimlari boshchilik qil adi.
Ular har bir federatsiya bilan birga, Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik davri bo'yicha str ategiya ishlab chiqadi. Buning uchun zarur sharoit va infratuzilmaga 300 milliard so'm y o'naltiriladi.
Shuningdek, chet eldan ilg'or tajribalar, grantlar jalb qilish choralari ko'riladi. Sportchi va murabbiylar xorijiy sport akademiyalarida o'qitiladi. Oldingi Olimpiya va Paralimpiy a o'yinlari natijasiga qarab, sport turlari ustuvorligi bo'yicha 3 ta toifaga ajratiladi.
Hududlardagi 310 ta sport maktabi milliy terma jamoalarning seleksiya bazasiga aylanis hi kerakligi ta'kidlandi. Ularda yangi metodika va yondashuvlar joriy qilinadi.

Olimpiya sport turlariga moslashtirilgan 56 ta sport maktabi milliy terma jamoala rga asosiy zaxira bo‘ladi. Ularda hududdan saralangan yoshlar individual reja asosida m aqsadli tayyorlanadi.




TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH
VA ULARNI MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI
KATTA O'QITUVCHI
2-STOMATOLOGIYA
fakulteti





Qaror qilindi Rejada belgilangan ma’naviy ahloqiy tarbiya va sport tadbirlari talab darajasida barcha o’quv guruhlarida o’tkazilishi talab darajasida o’tkazilishi ta’minlansin

Kafedra mudiri: **Shukurov F.I.**

Kafedra ma’naviyat ishlari bo‘yicha ma’sul: **Madolimova N.X.**